ISSN 2181-3187

KO‘RISHIDA ESHITISHDA VA YENGIL DARAJADAGI AQLIY RIVOJLANISHIDA MUAMMOSI BO‘LGAN BOLALAR INKLYUZIV TA’LIMIDA SINF XONALARI VA DARS JARAYONINI MOSLASHTIRISH

Karimova Setora G’ulom qizi

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti

“O'zbek tili va adabiyoti fakulteti“ talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ko’rish , eshitish va yengil darajadagi aqliy rivojlanishida muaaamosi bo’lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim muhiti yaratish masalari ko’rib chiqiladi . Xususan sinf xonasini moslashtirish , dars jarayonini o’zgartirish va maxsus usullarda foydalanish yo’llari tahlil etiladi. Shuningdek , o’qituvchilarning o‘quvchilarga individual yondashuvi, texnologiyalar va maxsus o‘quv materiallarining ahamiyati haqida so‘z boradi. Inklyuziv ta’limni samarali tashkil etish orqali imkoniyati cheklangan bolalarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish va ularni jamiyatga integratsiya qilish mumkinligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: Inklyuziv ta’lim, imkoniyati cheklangan bolalar, sinf xonasini moslashtirish, dars jarayoni, ko‘rish muammosi, eshitish muammosi, aqliy rivojlanish.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы создания инклюзивной образовательной среды для детей с нарушениями зрения, слуха и легкой степенью умственной отсталости. В частности, анализируются способы адаптации классного помещения, изменения учебного процесса и использования специальных методов. Также рассматривается индивидуальный подход учителей к ученикам, значение технологий и специализированных учебных материалов. Подчеркивается, что эффективная организация

ISSN 2181-3187

инклюзивного образования способствует расширению возможностей обучения детей с ограниченными возможностями и их интеграции в общество.

Ключевые слова: инклюзивное образование, дети с ограниченными возможностями, адаптация классного помещения, учебный процесс, нарушение зрения, нарушение слуха, умственное развитие.

Abstract: This article discusses the issues of creating an inclusive educational environment for children with visual, hearing, and mild intellectual disabilities. In particular, it analyzes ways to adapt the classroom, modify the learning process, and use specialized methods. Additionally, it highlights the importance of teachers' individualized approaches to students, the role of technology, and the significance of specialized educational materials. It is emphasized that effective organization of inclusive education can expand learning opportunities for children with disabilities and facilitate their integration into society.

Keywords: Inclusive education, children with disabilities, classroom adaptation, learning process, visual impairment, hearing impairment, intellectual development.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida har bir bolaga sifatli ta'lim berish va ularning ehtiyojlarini inobatga olish dolzarb masala hisoblanadi. Inklyuziv ta'lim tizimi imkoniyati cheklangan bolalarning umumiy ta'lim maktablarida boshqa o'quvchilar bilan birgalikda o'qishiga sharoit yaratadi. Ko'rishida, eshitishda va yengil darajadagi aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar uchun moslashtirilgan ta'lim muhiti ularning rivojlanishi va jamiyatga moslashuvi uchun muhim ahamiyatga ega.

Inklyuziv ta'lim – bu har bir bolaning individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish tizimi bo'lib, imkoniyati cheklangan o'quvchilarning jamiyatga to'laqonli integratsiyasini ta'minlashga qaratilgan. Ko'rishida, eshitishda va

ISSN 2181-3187

yengil darajadagi aqliy rivojlanishida muammosi bo‘lgan bolalar uchun mos sharoit yaratish ta’lim samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Inklyuziv ta’lim quyidagi ustunliklarga ega:

Imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiylashuvini kuchaytiradi. Ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

Ta’lim muhitida bag‘rikenglik va hamjihatlikni shakllantiradi.

Har bir bolaga mos ta’lim olish imkoniyatini yaratadi.

Eshitishida va aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar kar va zaif eshituvchilar maktabida ta'lim oladilar. Bolalarga yordamchi sinflarga yo'llanma beriladi. Yo'llanma berishdan oldin 2 ta hujjat aniqlanishi kerak. Bular kar va zaif eshituvchilar maktabi tuzilishi va bolalarni maktabga qabul qilish tartibi, tibbiy-pedagogik komissiya hujjati bo'lishi lozim. Kar va zaif eshituvchilar maktabiga" kar va eshituvchi oligofren debil daraja" dagi bolalar qabul qilinadi.

Yordamchi sinf o'quvchilari 5-7 ta, tarbiya guruhida 10-14 ta boladan iborat bo'ladi. Ularning ta'lim mundarijasi 2 ta hujjatdan iborat: o'quv rejasi va dasturidan. Ta'limning asosiy maqsadi kar va zaif eshituvchi aqli zaif bolalarni hayotga tayyorlash, mehnatga, o'z ehtiyojlarini qondirishga o'rgatishdan iborat. O'quv jarayoni 2 ta masaladan iborat: kar va zaif eshituvchilar maktabi oldiga qo'yiladigan maqsad nutqni korreksiyalash va rivojlantirish, ularning bilish faoliyatini korreksiyalash va rivojlantirish. Yordamchi sinflar o'quv rejasi 9 yil ta'limdan iborat. Bu 9 yil ichida bolalar ona tili, matematika va boshqa fanlar boshlang'ich tushunchasini o'rganadilar. Kar bolalar maktabi yordamchi sinflarida ushbu fanlar o'qitiladi: ona tili, matematika, tabiatshunoslik, geografiya, tarix, jismoniy tarbiya, tasviriy san'at va mehnat. Rejaga " ijtimoiy mo'ljal" fani ham kiritilgan. Kasbga yo'naltirish kar va aqli zaif bolalarga hayotga moslashishga yordam beradi.

ISSN 2181-3187

"Savodga o'rgatish" (1-sinf), "Daktil nutqqa o'rgatish" (1-sinf), "Eshituv idrokini rivojlantirish va o'qitish" (1-4-sinflar), "Nutqni rivojlantirish" (2-4-sinflar)," Husnixat" (2-4-sinflar). Savodga o'rgatishdan oldin og'zaki-daktil qo'llashga o'rgatiladi. Alifbo bilan ishlash o'qitishning 2-yarim yilligida olib boriladi. Nutqning rivojlanishi bolalarning o'z faoliyatlari jarayonida rivojlanib boradi. Dastlab olib kel, ber, kel kabi shakllardan foydalaniladi. Keyin so'roq gaplarni idrok qilib ularga javob berish o'rgatiladi. Atrofdagilar bilan muomala orqali nutqning og'zaki, daktil va yozma shakllaridan foydalanishadi. Kasbga yo'naltirish kar va aqli zaif bolalarga hayotga moslashishga yordam beradi.

Ko‘rishida muammosi bo‘lgan bolalar uchun moslashtirish

Ko‘rishida muammosi bo‘lgan bolalar uchun ta’lim muhitini moslashtirish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

Darslik va materiallar: Darsliklar katta shrift bilan chop etilgan bo‘lishi yoki braille alifbosida yozilgan materiallardan foydalanish tavsiya etiladi. Audio darsliklar va maxsus mobil ilovalardan foydalanish ham samarali bo‘lishi mumkin.

Sinf xonasida sharoit: Yorug‘lik yetarli bo‘lishi, sinf xonasida vizual kontrastlar yaratilishi lozim. Ekran yoki interaktiv doskalardan foydalanishda aniq va yorqin tasvirlar berilishi muhim.

Dars jarayoni: O‘qituvchi og‘zaki tushuntirishni ko‘proq ishlatishi, taktil (teginish orqali his qilish) materiallardan foydalangan holda darslarni olib borishi zarur.

Yengil aqliy rivojlanishida muammosi bo‘lgan bolalar axborotni qabul qilish, qayta ishlash va eslab qolish jarayonida qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu ularning ta’lim jarayonida o‘zlashtirish sur’atini pasaytirishi mumkin. Shuning uchun inklyuziv ta’lim sharoitida ularga mos keladigan pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish muhimdir. Moslashtirilgan sinf xonalari va maxsus dars jarayonlari ularning bilim olish

ISSN 2181-3187

imkoniyatlarini oshiradi va jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiya qilishga yordam beradi.

Sinf xonasini moslashtirish

Inklyuziv ta’limda yengil aqliy rivojlanishida muammosi bo‘lgan bolalar uchun sinf xonasi maxsus talablarni inobatga olgan holda tashkil etilishi lozim. Quyidagilar muhim omillar hisoblanadi:

Sinf xonasi yorug‘, rang-barang va tartibli bo‘lishi kerak.

Ko‘rgazmali materiallar (rasmlar, sxemalar, piktogrammalar) joylashtirilishi lozim. O‘quvchilarga o‘zlarini qulay his qilishlari uchun shaxsiy va umumiy joylar ajratilishi kerak.

Haddan tashqari bezaklardan qochish, chunki ortiqcha vizual stimullar diqqatni chalg‘itishi mumkin. Dars jarayonlarini moslashtirish

Differensial yondashuv

O‘quvchilar individual ehtiyojlariga qarab kichik guruhlarga ajratiladi. Har bir guruhga mos topshiriqlar va mashg‘ulotlar ishlab chiqiladi.

Interfaol va amaliy mashg‘ulotlar

O‘yin elementlari qo‘shilgan ta’lim metodlari qo‘llanilishi kerak. Jismoniy harakat bilan bog‘liq topshiriqlar bilimni yaxshiroq o‘zlashtirishga yordam beradi.

Rol o‘ynash mashg‘ulotlari va real hayotiy vaziyatlarni modellashtirish ta’lim samaradorligini oshiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak Inklyuziv ta’lim imkoniyati cheklangan bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratish va ularning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiya

ISSN 2181-3187

qilinishini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Ko‘rishida, eshitishda va yengil darajadagi aqliy rivojlanishida muammosi bo‘lgan bolalar uchun moslashtirilgan ta’lim muhiti ularning bilim olish jarayonini yaxshilaydi va ijtimoiy moslashuvini osonlashtiradi.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR

1. D.S.Qaxarova -Inklyuziv ta'lim texnologiyasi Toshkent.2014.
2. Р.Шомахмудова. Инклюзив таълимнинг назарий ва амалий асослари. Тошкент: ХТ «Розиқов О.Ж». 2007 й.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (2020). – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4884-son qarori “Imkoniyati cheklangan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash va ularning ta’lim olishini rivojlantirish to‘g‘risida” (2020).
5. Amanov R., Xoshimova D. (2021). Maxsus pedagogika va psixologiya. – Toshkent: Innovatsion ta’lim nashriyoti.
6. Ziyoev K., Tursunov A. (2019). Imkoniyati cheklangan bolalarga ta’lim berish metodikasi. – Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
7. Defektologiya va inklyuziv ta’lim asoslari. (2018). O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: TDPU nashriyoti.